Jahon banki va boshqa nufuzli xalqaro moliyaviy tashkilotlarning tajribalari koʻrsatishicha, «rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishiga investitsiyalarning yetishmasligi yoki yetarli miqdorda jalb qilinmasligi ularning oziq-ovqat xavfsizligi uchun jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin» [5]. Shu munosabat bilan agrar sohaga chet el investitsiyalarini jalb qilishdagi muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish, chet el investitsiyalarini jalb qilish mexanizmini takomillashtirish boʻyicha takliflar ishlab chiqishning zarurligi mavzuning dolzarbligini aks ettiradi va ushbu masalalarni chuqur tadqiq etishni taqozo etadi.

Oʻzbekiston iqtisodiyotini chuqur isloh qilish va taraqqiyotini taʼminlash uchun qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarda qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlardan unumli foydalanish, agrar sohada klasterlar faoliyatini takomillashtirish, qishloq xoʻjaligida yuqori oʻsish surʼatlarini taʼminlash, hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish, qishloq xoʻjaligini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash koʻlamini kengaytirish, agrar sohada eksport hajmini oshirish, birinchi navbatda, xorijiy investitsiyalarning faol jalb qilinishini taqozo etadi. «Qishloq xoʻjaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar

daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish» [6] hamda «qishloq xo‘jaligi sohasida eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish» [7] kabi muhim vazifalar belgilab olindi. Bunday dolzarb vazifalarni samarali ijrosining ta’minlanashida xorijiy investitsiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasida xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan, amaliy natijalarga erishilgan va ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Shu munosabat bilan, eng avvalo, «agrar soha», «investitsiyalar», «xorijiy investitsiyalar» tushunchalarining mazmun-mohiyati va xususiyatlarini nazariy jihatdan asoslab, so‘ngra ularning har biriga alohida e’tibor bergan holda agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirish masalasini ko‘rib chiqish mumkin.

Mavjud ilmiy manbalarda «agrar» [8] tushunchasi (lot. agrarius – yerga, dalaga oid) – yer-suv, yerga egalik va yer-suvdan foydalanishga oid munosabatlarni anglatadi. «Agrar soha» tushunchasini ikki xil talqin qilish mumkin. So‘zning tor ma’nosida bu qishloq xo‘jaligi, ya’ni qayta ishlash tarmoqlari uchun oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi xomashyosi ishlab chiqarishdir. Keng ma’noda agrar soha evolyutsiyasi jarayonida mustaqil sanoat tarmoqlari qishloq xo‘jaligidan ajralib chiqa boshladi, ilgari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan bajarilgan funksiyalarni o‘z zimmasiga oldi: qishloq xo‘jaligi uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qadoqlash, saqlash va tashish, mineral o‘g‘itlarni joriy etish bo‘yicha ishlar, melioratsiya, qishloq xo‘jaligi sektori uchun ishlab chiqarish xizmatlarining butun tizimidir. Agrar soha bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyot tarmoqlarining butun zanjiri shakllangan va ushbu tarmoqlarning umumiyligi agrosanoat majmuasi deb nomlandi.

«Bugungi kunda respublikamizda qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqaruvchilari – fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari yoki aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlaridan iborat» [9]. Agrar soha – bu aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash va bir qator sanoat tarmoqlari uchun xomashyo olishga qaratilgan iqtisodiyotning muhim tarmog‘i. Agrosanoat majmuasining eng muhim bo‘g‘ini sifatida qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan ishlab chiqarishning mavsumiy tabiati, yerdan mehnat obyekti va vositasi sifatida foydalanish va tabiiy sharoitlarga kuchli bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Shu nuqtayi nazardan ushbu soha investitsiyalarga doimo muhtoj.

Investitsiyalarning agrar soha taraqqiyotidagi ahamiyati bo‘yicha ilk ilmiy-nazariy qarashlar Fransua Kene asarlarida uchraydi. Uning fikricha, «faqat qishloq xo‘jaligida «toza mahsulot» ishlab chiqariladi, fizokratlar ta’limoti bo‘yicha iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi kuch sifatida savdo yoki ishlab chiqarish emas, balki qishloq xo‘jaligi qaraladi. Yerga egalik qilish va xo‘jalik yuritish uchun chorva mollari va yerni haydash uskunalari, urug‘liklar sotib olish kerak. Molxonalar qurish, kanallar qazish, quvurlar yotqazish, ishchilarni yollash bo‘yicha xarajatlarni amalga oshirish kerak» [10]. F.Kene ushbu fikri orqali xo‘jalik yuritish uchun zaruriy mehnat vositalari va predmetlarini xarid qilish asosida investitsiyaviy faoliyatni tashkil etishni, qishloq xo‘jaligiga investitsiyalar jalb qilish zarurligini nazarda tutadi. Shuningdek, tarmoqlar bo‘yicha investitsiyalarni jalb qilishda uning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi yuzasidan nisbiy ustunlik agrar soha ekanligiga urg‘u berib o‘tgan.

Iqtisodchi-olimlardan M.Donkt, F.Chan, A.Silvestrini fikricha, «agrar sohaga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlari) ishlab chiqarilishini intensiv rivojlantirib, mehnat unumdorligini oshiradi. Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda uy xo‘jaliklarining turmush tarzi qishloq xo‘jaligi sohasiga tayanadi, ularning farovonligi bevosita ular ixtiyoridagi resurslardan samarali foydalanishiga bog‘liq» [11]. Darhaqiqat, qishloq xo‘jaligida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalar qishloq xo‘jaligi yalpi ichki mahsuloti ishlab chiqarish hajmining o‘sishiga olib keladi, intensiv rivojlanish esa qishloq xo‘jaligida resurstejam texnika-texnologiyalardan foydalanish asosida mehnat unumdorligini ta’minlaydi.

MDH mamlakatlari iqtisodchi-olimlari ham juda chuqur va tizimli tarzda bo‘lmasa-da, agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga e’tibor qaratishgan. Xususan, I.Sigidovning ilmiy tadqiqotlarida «agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zarurligi qishloq xo‘jaligidagi moddiy-texnik ta’minotdagi uzilishlar, mashina va uskunalarni ta’mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatishdagi muammolar, ehtiyot qismlarning yetishmasligi kabi muammolar bilan izohlangan va bu hol qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning yechimi sifatida, ya’ni asosiy kapitalni modernizatsiya qilishda moliyalashtirishning muqobil shakli hisoblangan lizingni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan» [12]. Fikrimizcha, I.Sigidovning ushbu fikri agrar

sohani moliyaviy qo'llab-quvvatlash, uni modernizatsiya qilish, asosiy kapitalni yangilash orqali raqobatbardosh qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va eksport imkoniyatlarini yanada oshirish imkonini beradi. Sababi, lizing bir vaqtning o'zida moliyalashtirish va yangi texnika-texnologiyalarni xarid qilish masalalarini hal etish, aylanma mablag'larni to'ldirish hamda boshqa ehtiyojlar uchun mablag'larni ozod qilish imkonini beruvchi noan'anaviy moliyaviy vositadir. Biroq, birinchidan, bugungi kunda tijorat banklari va lizing kompaniyalari tomonidan mamlakatimiz hududida faoliyat ko'rsatadigan fermer xo'jaliklariga berilgan lizing kreditlarining foiz stavkalari nisbatan yuqori darajada, ikkinchidan, tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar va boshqa omillar sabab agrar soha korxonalarida pul oqimining susayishi natijasida ular lizing to'lovlarini o'z muddatida amalga oshirish imkoniga ega bo'lmay qoladi, oqibatda banklar va lizing kompaniyalari tomonidan qishloq xo'jaligi korxonalarini lizing asosida moliyalashtirish yuqori risk operatsiya sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan agrar soha korxonalariga lizing imtiyozli shartlarda va uzoq muddatga berilishi maqsadga muvofiqdir.

D.Alimjonova fikricha, «agrar sohaga yo'naltirilgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida iqtisodiy o'sishga erishishning eng samarali usulidir. Bunda qishloq xo'jaligi korxonalariga sarmoya kiritish u yoki bu darajada nazorat o'rnatishni o'z ichiga oladi, aks holda mablag'larni qaytarmaslik xavfi yuqori bo'ladi. Shu bois agrar sohaga xorijiy investitsiyalar jalb qilishni qo'shma korxona tashkil etish tarzida amalga oshirish zarur» [13] ligini ta'kidlaydi. Biroq, agrar sohaga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning o'ziga xos talablari mavjud. Xususan, «Xalqaro valyuta jamg'amasi (XVJ)ning ta'rifiga ko'ra, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar – bu chet el egasi aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitalining kamida 25 foiziga egalik qilishini anglatadi. AQSH qonunchiligiga ko'ra bu ko'rsatkich kamida 10 foizni, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida – 20-25 foizni tashkil, Rossiya Federatsiyasida 10 foizni, Kanada, Avstraliya va Yangi Zellandiyada 50 foizni tashkil qiladi» [14]. O'zbekiston qonunchiligida «chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan investitsiyalari – to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari» [15] sifatida e'tirof etilgan. Fikrimizcha, agrar sohaga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi qishloq xo'jaligida yangi korxonalar tashkil etish va faoliyat yuritayotganlarini sotib olish yoki qo'shib olish yo'li bilan amalga oshiriladi va bunda chet ellik investorlarning maqsadi, nafaqat, daromad olish, balki ta'sir doirasini kengaytirish, kelajakdagi ikki tomonlama moliyaviy manfaatlarni ta'minlash, korxonani boshqarishda bevosita ishtirok etish huquqini qo'lga kiritishdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Agrar soha taraqqiyotida xorijiy investitsiyalarning o'rni va ahamiyati bo'yicha dunyo iqtisodchi-olimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, ma'lumotlar to'plash, tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrlar, guruhlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiyalar agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirishda birinchi navbatda e'tiborga olinishi kerak va ular o'ziga xos tayanch nuqtasi hisoblanadi. Hozirgi kunga qadar investitsiyalarning mazmun-mohiyati xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinib kelinayotganligini alohida qayd etish zarur (1-jadvalga qarang).

Investitsiyalarning mohiyati va mazmuni O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, O'zbek tilining izohli lug'ati va milliy qonunchilikda ham o'z ifodasini topgan. Jumladan: «investitsiya (lot. investio – o'rash) – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki xorijda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish (qo'yish)dir» [16]; «investitsiya (nem. investition, lot. investire – kiyintirmoq, sarpo bermoq) mamlakat ichkarisida yoki chet elda foyda ko'rish maqsadida biror korxonaga, iqtisodiyotning muayyan tarmog'iga kapital qo'yish, kiritish va shunday kapitalning o'zi» [17]; «investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar» [18].

Investitsiyalarning mulkiy, moliyaviy va intellektual turlari ko'pgina adabiyotlarda yetarlicha yoritib berilganligi, undagi fikrlarga, asosan, qo'shilishimiz sababli, ularning mazmun-mohiyati va xususiyatlari to'g'risida alohida va atroflicha to'xtalib o'tirmadik.

1-jadval. Investitsiyalarning mazmun-mohiyatini ifoda etuvchi ta’riflar[1].

| Mazmun-mohiyati | Mualliflar |
|---|---|
| Investitsiyalar kelgusida (ehtimol nomuayyan) qiymatlik olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatlikdan voz kechishdir. | Sharp U., Aleksandr G., Beyli Dj. Investitsii: Per. s. angl. – M.: «INFRA-M», 2001. – S. 979. |
| Investitsiya (investment) – bu moddiy zaxiralarning koʻpayishi, ishlab chiqarish vositalarining jamgʻarilishi va ishlab chiqarishga yoʻnaltirilgan xarajatlar. | Makkonnell, Kempbell R. Ekonomiks (prinsipi, problemi i politika). Per. s angl. – M: «Respublika», 1992. – S. 388. |
| Investitsiyalar – qoʻyilmaning kelgusida oʻsishini ta’minlash maqsadida bugungi iste’moldan voz kechish. | Pol A. Samuelson, Vilyam D.Nordxaus. Ekonomika: Per. s angl. – M.: «BINOM», «LBZ», 1997. – C. 783. |
| Investitsiya – ishlab chiqarish davri davomida paydo boʻlgan kapital qoʻyilma qiymatining joriy oʻsishi. Bu oʻsha davrdagi foydaning iste’mol uchun ishlatilmagan qismi hisoblanadi. | Keyns Dj.M. Obshaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg: per. s angl. – M.: «Getos ARV», 1999. – S. 352. |
| Investitsiyalar – bu iqtisodiy tizimda harakatdagi kapital hajmining koʻpayishi, ya’ni insonlar tomonidan amalga oshiriladigan ishlab chiqarish resurslari ta’minotining koʻpayishi. | Dolan E.D., Lindsey D.Ye. Rinok: mikroekonomicheskaya model: Per. s angl. – SPb.: «Ekonomika», 1992. – S. 13. |
| Investitsiya – moliyaviy va moddiy-texnik resurslarni iqtisodiy (daromad, foyda) foyda olish yoki ijtimoiy, ekologik va siyosiy samaraga erishish maqsadidagi qoʻyilmalardir. | Investitsii: uchebnoye posobiye dlya studentov napravleniya «Ekonomika» / sost. T.V.Denisova, I.G.Nuretdinov, Yu.V.Nuretdinova. – Ulyanovsk: «UlGTU», 2017. – S. 22. |
| Investitsiya – bu daromad olish maqsadida moddiy va nomoddiy obyektlarga joylashtiriladigan qoʻyilmalardir. | Askinadzi, V.M. Investitsii: uchebnik dlya bakalavrov. – M.: «Yurayt», 2019. – S. 11-12. |
| Investitsiya – foyda olish yoki boshqa samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga joylashtiriladigan pul mablagʻlari, qimmatli qogʻozlar, mol-mulklar, pul qiymatiga ega boʻlgan mulkiy va boshqa huquqlar. | Yuzvovich L.I. i dr. Investitsii i investitsionnaya deyatelnost: uchebnik. – Yekaterinburg: «Ural. un-ta», 2021. – S. 400. |
| Investitsiya – foyda olish yoki boshqa samaralarga erishish maqsadida oʻz yoki oʻzga mamlakatning turli tarmoqlariga, tadbirkorlik loyihalari, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar va innovatsion loyihalarga yoʻnaltirilgan pul mablagʻlarini uzoq muddatga joylashtirish. | Neshitoy A.S. Investitsii: Uchebnik. – 5-ye izd. pererab. i ispr. – M.: «Dashkov i K0», 2007. – S. 13-14. |
| Foyda (daromad) olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida pul mablagʻlari, maqsadli bank omonatlari, aksiyalar va boshqa qimatbaho qogʻozlar, texnologiyalar, mashinalar, asbob-uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, boshqa har xil mulklar yoki mulkiy huquqlar hamda intellektual boyliklarni tadbirkorlik va faoliyatning boshqa turlari obyektlariga qoʻyilishining barchasi investitsiyalar hisoblanadi. | Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2019. – Б. 761. |
| Investitsiyalar – foyda olish hamda ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qoʻyiladigan pul mablagʻlari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qogʻozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklar. | Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. Oʻquv qoʻllanma. – T.: «Moliya», 2010. – B. 303. |
| Investitsiya – bu aniq va ishonchli manbalardan mablagʻlar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va koʻzlangan samarani olishdan iborat boʻladi. | Gʻozibekov D. Gʻ. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: «Moliya», 2003. – B. 26. |

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar asosida bir necha muhim xulosalarni chiqarish mumkin:

Birinchidan, investitsiyalar mazmuniga tadbirkorlik obyektlariga investitsiya qilingan pul mablagʻlari, qimmatli qogʻozlar, boshqa mol-mulklar, shu jumladan mulkiy huquqlar, pul qiymatiga ega boʻlgan boshqa huquqlar sifatida qaralmoqda.

1 Жадвал тадқиқот натижаларига кўра муаллиф томонидан шакллантирилган. Уни шакллантиришда турли манбаларда инвестицияларга берилган таърифларнинг мазмуни таҳлил қилинган.

Ikkinchidan, investitsiyaning mohiyati – daromad (foyda) yoki ijtimoiy samara olish uchun kapitalni uzoq muddatli asosda joylashtirish sifatida e'tirof etilmoqda.

Uchinchidan, investitsiyalar – foyda (daromad) olish va boshqa ijobiy samaraga erishish uchun tadbirkorlik faoliyati obyektlariga maqsadli kapital qo'yish shaklida amalga oshiriladigan xarajatlar tarzida talqin qilinmoqda.

To'rtinchidan, investitsiyalarning moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlardan iboratligi qayd etilmoqda.

Beshinchidan, kelgusida (ehtimol nomuayyan) qiymatlik olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatlikdan, joriy iste'moldan voz kechishga investitsiya deyilmoqda.

O'rganishlar natijasida ma'lum bo'ldiki, investitsiyalar mazmuniga berilgan ta'riflarda yagona yondashuv mavjud emas. Fikrimizcha, investitsiyalarning mazmun-mohiyatini ifoda etuvchi eng muhim xarakterli belgilardan birinchisi mohiyatan ularning foyda (daromad, ijtimoiy samara, naf) olishga qaratilganidir. Investorlar turli mablag'larni joylashtirishlarida, eng avvalo, o'z maqsadlarini ko'zlaydi va bu maqsadlar har doim ham umumiqtisodiy manfaatlarga mos kelmasligi mumkin. Ikkinchi muhim xarakterli belgisi – bu investitsiyalarning turli shakldagi mablag' (resurs)lardan iborat ekanligi. Haqiqatdan ham investitsiyalash jarayonida talab, taklif va bahoga ega turli moddiy, moliyaviy, mulkiy, intellektual resurslardan foydalaniladi. Uchinchsi muhim xarakterli belgisi sarmoyaning harakatlanishi bilan ifodalanadi. Xususan, sarmoyalar investitsiyalarga aylanishi uchun iqtisodiyotning tarmoq va sohalariga, tadbirkorlik obyektlariga sarflanishini taqozo etadi va xarajatlar ko'rinishiga ega bo'ladi. Shu nuqati nazardan investorlar tomonidan xarajatlar tarzida iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga joylashtiriluvchi turli ko'rinishlarga ega boylik (resurs)lar investitsiyalarga aylanadi.

Shunday qilib, yuqorida bayon etilganlarga asoslanib, fikrimizcha, investitsiyalarning mazmun-mohiyatini ifoda etuvchi quyidagicha ta'rif berish o'rinli: foyda (daromad, naf) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida turli obyektlarga joylashtiriluvchi moddiy va nomoddiy boyliklarga investitsiyalar deyiladi. Shuni alohida qayd etish zarurki, «xorijiy» so'zi investitsiyalarning mohiyatini emas, aksincha uning chetdan, tashqaridan, chet eldan, xorijdan, chet ellik investorlar tomonidan joylashtirilishini tavsiflaydi. Shu munosabat bilan xorijiy investorlar tomonidan foyda (daromad, naf) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida turli obyektlarga joylashtiriluvchi moddiy va nomoddiy boyliklarga xorijiy investitsiyalar deyiladi.

Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqib, agrar sohada xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyatini oydinlashtirishda ikki yondashuv mavjudligini qayd etish mumkin: birinchisi, qishloq xo'jaligida asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlarini takror ishlab chiqarish uchun zaruriy resurslar majmuasi; ikkinchisi, asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlarini maqsadli shakllantirish bilan bog'liq xarajatlar.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar va qiyosiy o'rganishlar natijasi ko'rsatishicha, xorijiy investitsiyalarning ichki investitsiyalardan farqli o'laroq agrar soha taraqqiyotidagi roli quyidagilar bilan belgilanadi:

- Xorijiy investitsiyalar kapitalning qo'shimcha manbai bo'lib, qishloq xo'jaligida asosiy vositalarni yangilash va texnik qayta qurollantirish, agrar investitsiya siyosatini amalga oshirish orqali qishloq xo'jaligi rivojlanishini ta'minlash, bozorni raqobatbardosh tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirish uchun mamlakat resurslarini sezilarli darajada oshiradi;
- Qishloq xo'jaligida ilg'or texnologiyalar, nou-xau, zamonaviy menejment va marketing usullarini joriy etish uchun mablag' manbai bo'lib xizmat qiladi;
- Agrar sohada yangi texnologiyalar, bozor mexanizmlari va xalqaro tajribadan samarali foydalanadigan kadrlarni tayyorlash masalalari ijobiy hal etiladi;
- Agrar sohada chet ellik investorlarning investitsiya qilingan mablag'larining rentabelligini ta'minlaydi va shu bilan birga mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirish jarayonini tezlashtiradi;
- Qishloq xo'jaligida samarali integratsiya jarayonlarini rivojlantirishga, milliy iqtisodiyotni jahon iqtisodiyotiga kiritishga yordam beradi, xalqaro mehnat taqsimotining afzalliklaridan mohirona foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi.

Investitsiyalar agrar sohaning barcha tarmoqlariga, xususan: qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalari, mineral o'g'itlar va kimyoviy vositalar yetkazib beradigan sanoat korxonalari; fermer va dehqon xo'jaliklari, agrofirmalar hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari; qishloq xo'jaligidagi mahsulotlarni qayta ishlash va sotish kabi vazifalarni bajaruvchi korxonalar; qishloq xo'jaligi infratuzilmasiga xizmat qiluvchi tarmoq korxonalariga kiritilib, ularning iqtisodiy barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aniqlab berishga o'z hissasini qo'shishi lozim bo'lgan uning muhim o'ziga xos xususiyatlarini, shakllari va bosqichlarini yanada tushunarliroq bo'lishi uchun quyidagicha tavsiflash va tasniflash mumkin (1-rasmga qarang).

**Agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish**

**xususiyatlari**

– chet ellik investorlar tomonidan foyda (daromad, naf) olish maqsadida agrar sohani rivojlantirish uchun muayyan muddatga sarflangan barcha turdagi boyliklar;
– agrar sohada asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlarini maqsadli shakllantirish bilan bog‘liq xarajatlar hamda asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlarini takror ishlab chiqarish uchun zaruriy resurslar majmui;
– nisbatan uzoqroq muddatda joylashtirilishi, tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlariga bog‘liqligi;
– boshqa tarmoqlarda kapital aylanishi qishloq xo‘jaligidagiga nisbatan bir necha marta yuqoriligi va qishloq xo‘jaligida kapitalning sekin aylanishi bu tarmoqqa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini keskin cheklashi;
– yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yangi yerlarni o‘zlashtirish va sug‘orish tarmoqlarini barpo etish, ishlab chiqarishni texnik qurollantirish, fan – texnika yutuqlari va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, ekologik vaziyatni barqaror ushlab turish kabi muhim tadbirlarni amalga oshirish uchun yirik miqdordagi xorijiy sarmoyalarni talab etishi;
– qishloq xo‘jaligida asosiy vositalarni yangilash va texnik qayta qurollantirish, ilg‘or texnologiyalar, nou-xau, zamonaviy menejment va marketing usullarini joriy etish.

**maqsadlari**

– aholining yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun agrosanoat majmui faoliyati samaradorligini oshirish;
– oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash;
– agrosanta majmuasining u yoki bu mahsulotlarini ishlab chiqarish ixtisoslashgan korxonalarning rentabelligini ta’minlash;
– qishloq xo‘jaligida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash asosida yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish va eksport salohiyatini oshirish;
– va boshqalar

**shakllari**

– to‘g‘ridan to‘g‘ri (qishloq xo‘jaligida asosiy fondlarni yaratish va takror ishlab chiqarish, texnika-texnologiyalarni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash, aksiyalar nazorat paketini sotib olish va h.k.), portfel (aksiyalar, korporativ, infratuzilmaviy va davlat obligatsiyalariga, shuningdek qimmatli qog‘ozlarning boshqa turlariga kiritiladigan investitsiyalar ) va boshqa (agrar sohaga xalqaro kreditlarni jalb qilish, qishloq xo‘jaligi mutaxasislarini o‘qitish, ularning salohiyatini, malakasini oshirish va h.k.) investitsiyalar shaklida joylashtirish;
– qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida korxonalar tashkil etish yoki ularning ustav fondlarida (ustav kapitallarida) ulushli tarzda, shu jumladan mol-mulk va aksiyalar (ulushlar) sotib olish yo‘li bilan ishtirok etish;
– qishloq xo‘jaligida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni, boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlarini olish;
– qishloq xo‘jaligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalarini, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus huquqiy rejimga ega bo‘lgan maxsus agrar iqtisodiy zonalalar tashkil etish.

**bosqichlar**

– qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar, fermer va dehqon xo‘jaliklarining moliyaviy imkoniyatlarini baholash;
– qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar, fermer va dehqon xo‘jaliklarida moliyaviy xavfsizlik asoslarini yaratish;
– agrar sohaga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar maqsadlarini aniqlash;
– qishloq xo‘jaligiga xorijiy investitsiyalarni kiritish bilan bog‘liq risklarni aniqlash va ularning oldini olish, himoyalanish choralarini ko‘rish;
– agrar sohaga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarning strategiyasini aniqlash;
– agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni kiritish uchun loyihalarni tanlash, tahlil qilish va baholash (NPV, IRR, PI, DPP)

1-rasm. Agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish xususiyatlari, maqsadlari, shakllari va bosqichlari[2].

2 Тадқиқот натижалари асосида ишлаб чиқилган.

Fikrimizcha, biz tomonimizda ishlab chiqilgan va agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mazmun-mohiyati va ahamiyatini yanada kengroq, to‘laroq shaklda ochib berishga xizmat qiluvchi 1-rasm ma’lumotlarida agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mohiyati, sarmoyalarning yo‘nalishlari, maqsadlari, imkoniyatlari, tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlarga bog‘liqligi, zarurligi va ahamiyat ochib berilgan. Shuningdek, agrar sohaga jalb qilinadigan xorijiy investitsiyalarning uch turdan iboratligi, qanday shakllarda amalga oshirilishi hamda qishloq xo‘jaligida xorijiy investitsiyalar amalga oshirish bosqichlari qisqaroq shaklda bayon qilingan.

O‘z navbatida, agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va investitsiya jarayonlarini faollashtirishda investitsiya muhiti muhim rol o‘ynashini hisobga olish kerak hamda qishloq xo‘jaligiga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish va samarali o‘zlashtirish investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi omillarga bog‘liq bo‘ladi. Fikrimizcha, agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi omillarni umumlashtirib, quyidagi ko‘rinishda ifodalash maqsadga muvofiqdir (2-rasmga qarang).




2-rasm. Agrar sohada investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi omillar[3].

Agrar sohada investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi omillarning ijobiy bo‘lishi, jozibadorligi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi assatsiatsiyasi (FAO) ma’lumotlariga ko‘ra, «qishloq xo‘jaligida investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi omillar (turli mojarolar, tabiiy-iqlimiy hodisalar, oziq-ovqat mahsulotlari narxining o‘sib borishi, aholi daromadlari tengsizligi darajasining o‘sib borishi va h.k.) oziq-ovqat xavfsizligi sohasida jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi» [19]. Haqiqatdan ham agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsiya muhitining yaratilishi agrar sohani intensiv rivojlantirib, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi ta’minlashda g‘oyat muhim rol o‘ynaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xorijiy investorlar tomonidan foyda (daromad, naf) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida qishloq xo‘jaligi obyektlariga nisbatan uzoqroq muddatga yo‘naltirilgan (xarajatlar tarzida) barcha turdagi boylik (resurs)lar agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mohiyatini ifodalaydi.

Agrar sohaga investitsiyalarni yo‘naltirilish obyekti sifatida: asosiy fondlar tarkibida turuvchi uskuna va jihozlar, texnika vositalarini sotib olish va o‘rnatish; turli xil maqsadlarga mo‘ljallangan bino-inshootlar (suv inshootlari, omborlar, chorvachilik binolari, issiqxonalar, texnikalarni saqlash binolari kabilar)ni barpo etish; bog‘lar yaratish; yangi yer maydonlarini o‘zlashtirish; yerlarning irrigatsion-meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini oshirish; yo‘llar qurish; elektr tarmog‘ini yaratish; mehnat qiluvchi ishchi-xodimlarni olis joylarga ko‘chirib

3 Тадқиқот натижалари асосида ишлаб чиқилган.

olib o'tish va ular uchun yashash sharoitini ta'minlash (qurilish ishlari); asosiy fondlarni kapital ta'mirlash; ularni yangilash, modernizatsiyalash yoki kengaytirish va shu kabilarni sanab o'tish mumkin.

Mamlakatda, xususan, qishloq xo'jaligida investitsiya faoliyatining rivojlanishi investitsiyalarni jalb etish uchun yaratilgan investitsiya muhitiga bog'liqligi sababli chet el va ichki investitsiyalarni iqtisodiyotga keng jalb etish uchun qulay investitsiya shart-sharoitlarini, jumladan, huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish zarur. Yuqorida ta'kidlangan barcha shart-sharoitlar yaratilgandagina investitsiya muhitining qulayligini ta'minlash mumkin.

Bugungi kunga kelib, respublikada yaratilgan investitsion muhit iqtisodiyotning boshqa sohalari kabi qishloq xo'jaligiga ham investitsiyalarni keng jalb etish imkonini yaratib berdi va u yil sayin qulaylashtirib borilmoqda. Lekin, qishloq xo'jaligi sohasida investitsiyalarni, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha mavjud investitsiya muhitini qoniqarli darajada, deb bo'lmaydi. Shu munosabat bilan «O'zbekiston qishloq xo'jaligiga 2024 yilda mavjud loyihalar hisobidan 655 mln dollar xorijiy investitsiyani o'zlashtirish topshirildi. Shuningdek, to'g'ridan to'g'ri investitsiya ishtirokida 500 mln dollarlik yangi loyihalarni boshlash muhimligi» [20] ta'kidlandi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Agrar sohaning iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olib, mamlakatning yaqin kelajakdagi rivojlanish strategiyasiga asoslanib ta'kidlash mumkinki, qishloq xo'jaligi kelgusi yillarda ham iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i bo'lib qoladi. Shu sababdan ham mazkur tarmoqni rivojlantirishning moliyaviy asoslarini atroflicha va chuqur o'rganish davr talabi hisoblanadi. Ayniqsa, tarmoqda ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalariga (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari) xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va investitsiya faoliyatini moliyalashtirishni rivojlantirish masalasi o'ta dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Bizning fikrimizcha, agrar sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirishda quyidagi tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofidir:

1. Qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan xorijdan olib kelinadigan ishlab chiqarilganiga uch yildan oshmagan barcha turdagi qishloq xo'jaligi texnikalari va agregatlari hamda ularning butlovchi buyumlari va ehtiyot qismlarini bojxona to'lovlaridan ozod qilinishi agrar sohada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun zarur agrotexnik tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlaydi, sohada qishloq xo'jaligi texnikasiga bo'lgan talabni qondiradi, qishloq xo'jaligi korxonalarini zamonaviy va intensiv texnikalar bilan ta'minlashni rag'batlantiradi;
2. Xalqaro moliya institutlari tomonidan lizing kompaniyalariga ajratilgan investitsiyalar doirasida o'zini o'zi band qilgan shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga qishloq xo'jaligi texnikasi va agregatlarini lizingga berishni rivojlantirish zarur. Bu esa agrar sohani zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlash ishlarini yanada rag'batlantiradi. Xususan, har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan istalgan xo'jalik subyektlaridan hech qanday cheklovlarsiz, raqobat asosida qishloq xo'jaligi texnikasini xarid qilish imkoniyatini yaratadi.
3. Xalqaro moliya institutlaridan jalb qilingan investitsiyalar hisobidan fermer va dehqon xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi texnikalarini imtiyozli shartlarda lizingga berish amaliyotini rivojlantirish zarur. Bunday holat qishloq xo'jaligi texnikasi xaridini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, dehqon va fermer xo'jaliklari tomonidan xorijiy investitsiyalar hisobidan imtiyozli shartlarda qishloq xo'jaligi texnikalaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirish imkonini beradi.
4. Agrar sohada to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari evaziga tashkil etiladigan korxonalar ustav fondidagi chet el investitsiyalari ulushining eng kam miqdorini 15 foizdan 12 foizgacha kamaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu hol agrar sohada tashkil etilayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish sur'atlarini ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. Глобальный агроэкспорт: ТОП-10 государств и самые сильные сельскохозяйственные страны мира | linDEAL.
2. FAO. 2023. Outcomes of the United Nations Food Systems Summit in Europe and Central Asia - A stocktake. Budapest. https://doi.org/10.4060/cc5319en. The Food and Agriculture Organization of the United Nations. Отчет Продовольственной и сельскохозяйственной организации Объединенных Наций за 2022 год.
3. (PDF) Современные тенденции инвестиций в сельское хозяйство Current Trends in Investment in Agriculture (researchgate.net).
4. Telegram: Contact @avpharm.
5. Microsoft Word - K6077R_HELF_2050_.doc (fao.org).
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони. 30-мақсад.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон ««Ўзбекистон – 2030» стратегияси тўғрисида»ги Фармони.




IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

8. O'zbek tilining izohli lug'ati - A.pdf (ziyouz.com).
9. Қаҳҳоров О.С. Қишлоқ хўжалигида кластер тизимини ривожлантириш: тажрибалар, натижалар ва истиқболли йўналишлар. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. — Бухоро: Sadriddin Salim Buxoriy, 2019. – Б. 3. – 260 б.
10. Марк Блауг. 100 великих экономистов до Кейнса. Перевод с английского под редакцией А.А.Фофонова. – СПб: Экономикус. 2009. – С. 128-130.
11. Marie Vander Donckt, Philip Chan, Andrea Silvestrini. A new global database on agriculture investment and capital stock. April 2021. – P. 106. Новая глобальная база данных по инвестициям в сельское хозяйство и акционерному капиталу - ScienceDirect.
12. Инвестиции как фактор повышения эффективности производства в аграрных формированиях (kubagro.ru).
13. Алимжанова Д. Проблемы привлечения иностранных инвестиций в аграрный сектор экономики страны (__[#483468]-574842.pdf).
14. Доклад Всемирного банка / World Development Report 2011: A Better Investment Climate for Everyone (World Development Report) // The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. 2010. Оксютик Г.П. Иностранные инвестиции в России. Монография. – СПб.: Издательство Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2014. – С. 15.
15. ЎРҚ-598-сон 25.12.2019. Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида (lex.uz).
16. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. «И» ҳарфи. – Т.: «ЎМЭ» давлат илмий нашриёти. 2002. 4-том. – Б. 145.
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Таҳрир ҳайъати Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. – Т.: «Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси», 2008. – Б. 207.
18. https://lex.uz/docs/4664142.
19. ФАО, МФСР, ЮНИСЕФ, ВПП и ВОЗ. 2022. Краткий обзор. Положение дел в области продовольственной безопасности и питания в мире – 2022. Переориентация политики в области продовольствия и сельского хозяйства в интересах повышения экономической доступности здорового питания. Рим, ФАО. https://doi.org/10.4060/cc0640ru.
20. Аграр соҳа учун хорижий инвестициялар – Bugun.uz.

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 8**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.